

INTERNETNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI, XXI ASR HAYOTIDA INTERNETNING TUTGAN ROLI VA O'RNI

Aldashev Ilhomjon

*Farg'ona davlat universiteti axborot
texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi*

Maxmudova Maftuna

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti
o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgi davr hayotida internetning tutgan roli va elektron qurilmalarning o'rni, internetning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Internet, ijtimoiy tarmoq, axborot, Pentagon, texnologiyalar, TCP.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются место и роль Интернета в современной жизни, его возникновение и развитие.*

Ключевые слово: *Интернет, социальная сеть, информация, Пентагон, технологии.*

Abstract: *This article talks about the role and place of the Internet in modern life, its emergence and development.*

Keywords: *Internet, social network, information, Pentagon, technology.*

XXI asr, albatta, axborot texnologiyalar asridir. Aynan bugungi kun taraqqiyotini jahon internet tarmog'i bo'lgan internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanib borayotgan internet bizga turli imkoniyatlar eshigini ochdi. Internet, hattoki, insonlarga uydan bir qadam ham chiqmay turib, million kilometr uzoqlikdagi insonlar bilan internet orqali yuzma-yuz suhbat qurish, makon va zamondan qat'i nazar istalgan vaqtda dunyodagi barcha kutubxonalarga tashrif buyurish va u yerdagi kitoblarning istalganidan onlayn tarzda foydalanish, turli mushkulotlarsiz, vaqtimizni tejagan holda o'z hujjatlarimizni tayyorlay olish va yana bir qator yumushlarni qayerda va qanday sharoitda bo'lishdan qat'i nazar qila olish kabi imkoniyatlarni bizga taqdim etdi. Internet ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Masofaviy ta'lim degan tushunchalarning bizning hayotimizga kirib kelishi va rivojlanishi ham internet tarmog'i bilan chambarchas bog'liqdir. Biz qayerda va qanday sharoitda bo'lishimizdan qat'i nazar dunyoning eng nufuzli universitetlarida bormasdan turib o'qish, ijtimoiy tarmoq va messengerlar orqali turli konferensiyalar o'tkazish, onlayn malaka oshirishimiz mumkin. Ya'ni internet va ijtimoiy tarmoqlarning ajzallik taraflarini bilgan inson hozirgi davr hayotida mukammal yashay oladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar jadallik bilan rivojlanayotganidan, hattoki, televidenyani ham ortda qoldirdi. Hozirgi kunda axborot va ma'lumotlarni bilish uchun bizga gazeta va jurnallar o'qish yoki teleizor ko'rish

shart emas. Shunchaki ijtimoiy tarmog'iga kirib, davr va vaqtdan qati nazar o'zingiz qidirgan ma'lumotlarni topib o'qishingiz mumkin. Haqiqatdan ham, jahonda sodir bo'layotgan dolzarb mavzular, hodisalar, voqealarni eng birinchi OAV orqali kuzatamiz. Bu borada auditoriyaga tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar birlamchi ahamiyatga ega. Hozirgi kunda axborot olish va axborot tarqatish maydoni sifatida internet hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Global tarmoq, globallashtiruvchi axborot va ommaviy axborot vositalari tushunchasini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Bu haqida so'z yuritganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrlarni aytadi: "Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko'rsatayotgani, ushbu yo'nalishda yangi ijodiy avlod – internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga sazovordir". Darhaqiqat, internet jurnalistlar faoliyatida yangi shakl va uslublar joriy etdi. Bu borada muammoning yana bir jihatini e'tibordan qoldirmaslik kerak. Eng avvalo, internet aniq va noaniq bo'lgan axborot manbaidir. Ikkinchidan, bu global tarmoqda auditoriya ham axborot iste'molchisi, ham axborot tarqatuvchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi. U o'zida juda ko'p manbalar va manzillarni jamlagan. Shuning uchun ham internetning rasmiy saytlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayrim faktlarga ko'ra internet birinchi 50 million foydalanuvchisini 5 yilda to'plagan, televideniya esa buning uchun 13 yil sarflagan va bundan tashqari internetga ulangan qurilmalar soni sayyoradagi odamlar sonidan ham ko'proqdir.

Hozirgi kunda internetdan to'g'ri foydalanish degan tushunchalarga qat'iy amal qilish kerak. Albatta, har bir narsaning foydali taraflari bo'lganidek, zararli taraflari ham yo'q emas. Global tarmoq natijasida qaramlik, tobelik kabi "kasalliklar" paydo bo'ldi. Yoshlarning ko'p vaqtlarini internetda o'tkazishlari hozirgi kunning eng katta muammosidir. Soatlab internet tarmog'idan foydalansh bosh og'rig'i va ko'z kasalliklarini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun ham dunyoda eng keng tarqalgan kasalliklardan biri bu – ko'z kasalligidir. Yoshlarning internetga qaramligini ortishi real hayotdan uzoqlashishiga olib keladi. Bu uning odamlar bilan muomala qilolmasligida, faqatgina o'z qobig'iga o'ralib olishida, egosentrizm bo'lib qolishida yaqqol namoyon bo'ladi. Internetning qisman foydali va zararli taraflarini ko'rib chiqdik.

O'zi internet, axborot nima?

Internet (lotincha: inter –aro va net –tarmoq) – standart internet protokoli orqali ma'lumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchun ochiq to'plamidir. Bu ma'lumotlarning asosiy tashuvchi protokoli TCP/IPdir. TCP/IP o'zaro bog'liq protokollar yig'indisi bo'lib, internetdan ma'lumot tarqalishida muhim o'rin egallaydi. O'tgan asrning 60-yillarida internet tizimi paydo bo'ldi. O'sha davrda AQSH o'z mablag'i evaziga mamlakatning eng yirik universitet va ilmiy markazlarini birlashtirish harakatiga tushib qoladi. Ularning istagi olimlarning o'ta muhim loyihalar ustidan hamjihatlikda bosh qotirishlaridan iborat edi. Bu ish bilan Pentagonning DARPA bo'limi shug'ullanadi va 1969-yil internetning ilk ko'rinishi ARPANET vujudga

keldi. Natijada har bir amerikalik o'quvchi: "Internet bu–Pentagonning jahonga taqdim etgan ixtirosi" ekanligini ta'kidlashadi. Internet tarmog'i 1980-yilidan vujudga kelishdan boshlab, 1983-yilda internet texnologiyasiga o'tish o'z nihoyasiga yetadi. Internetning rivojlanishi uchun juda ko'p olimlar ish olib borgan va hozirgi kunda ham internet tarmog'iga o'zgarish va yangilanishlar kiritish uchun ish olib borishmoqda.

Axborot termini "information" lotincha so'zdan olingan bo'lib, ma'lumot berish, tushuntirish ma'nolarini anglatadi. Informatsiya tushunchasiga keng va har tomonlama izohni kibernetika beradi. Uning asoschisi Nobert Viner: "Informatsiya–bu tashqi olamdan olingan ma'lumot mohiyatiga bizning moslashuvimiz va bizning his-tuyg'ularimiz moslashuvi jarayoni bilan izohlanadi". Qisqa qilib aytganda, internetning bizning hayotimizda tutgan o'rni juda katta va u hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://m.aniiq.uz/uz/yangiliklar/internet-va-uning-yoshlar-tarbiyasidagi-hamiyati>

2. Принципы международной журналистики и международный обмен

3. https://www.researchgate.net/publication/349346470_INTERNET_TARIXI_VA_HOZIRGI_KUNDAGI_O'RNI

4. <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-media-makonda-internet-va-unda-axborot-almashinuvining-o-ziga-xosligi>.

5. I.Aldashev "Media ta'limning o'quv jarayoniga tatbig'i" Results of National Scientific Research International Journal 2023

6. Aldashev "O'qituvchi ishida ijodiy yondashish xususiyatlari" Results of National Scientific Research International Journal 2023 Volume 2| Issue 4

7. I.Aldashev, S.Aldasheva "Dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni" - ... and practical conference" the time of..., 2022 Related articles

8. Modern information technologies in education is a new opportunity I.Aldashev - Economy and society, 2020 Cited by 8 Related articles